




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdaliyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifatini, mazmuni va haqiqiylikni uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıy shıyǵarmalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushıyq ideyalar	629
40	O'g'iloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

O'ZBEK BOLALAR FOLKLORINING O'RGANILISHI

THE STUDY OF UZBEK CHILDREN'S FOLKLORE

Farangiz ESHMO'MINOVA,

ToshDO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IRYW2973

Annotation. *This article analyzes the history of the scientific study of Uzbek children's folklore, its stages of formation and development, as well as the scholarly legacy of the leading researchers who have contributed to this field. It explores the process of academic inquiry from the earliest attempts to recognize children's folklore as an independent object of research and to establish it as a distinct field within folkloristics, up to the present day.*

Key words: *children's folklore, scholar, research, folkloristics, genre, lullaby, comparative study.*

O'zbek bolalar folklorining ilmiy o'rganilishi xalq og'zaki ijodini yig'ish, nashr etish va nazariy jihatdan tahlil qilish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Dastlab bolalar folkloriga oid namunalar umumiy folklor to'plamlari tarkibida uchragan bo'lsa, keyinchalik ular mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ajratila boshladi.

Folklorshunoslikda bolalar folklorining o'rganilishi, avvalo, xalq og'zaki ijodi haqidagi umumiy nazariy qarashlar asosida shakllandi. O'zbek folklori bo'yicha yaratilgan darsliklarda folklor xalqning og'zaki badiiy ijodi, tarixiy xotirasi, urf-odati va ma'naviy merosini ifodalovchi hodisa sifatida talqin qilinadi.

O'zbek bolalar folklorining maxsus o'rganilishi G'ani Jahongirov nomi bilan bog'liq muhim bosqichga ega. G'ani Jahongirovning 1975-yilda yaratilgan "O'zbek bolalar folklori" monografiyasi bolalar folklorini o'rganishdagi dastlabki yirik ishlardan biri sifatida qayd etiladi.

G'ani Jahongirovning tadqiqoti bolalar folklorini mustaqil ilmiy obyekt sifatida ajratishda muhim ahamiyatga ega. Uning ishida bolalar folklori faqat tarbiyaviy material sifatida emas, balki o'ziga xos poetik tizimga ega bo'lgan xalq og'zaki ijodi sohasi sifatida qaralgan.

Bolalar folklorini o'rganishda Oxunjon Safarov ilmiy merosi ham alohida o'rin tutadi. O. Safarov o'zbek bolalar folklorining janrlar tizimini keng qamrovda tadqiq etgan olimlardan biridir.

O. Safarovning "O'zbek bolalar poetik folklori" monografiyasi, "Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari" risolasi va "Boychechak" to'plami o'zbek bolalar folklorshunosligida muhim manbalar sifatida baholanadi.

Bolalar folklorining o'rganilishida alla janriga alohida e'tibor qaratilgan. Alla xalq pedagogikasining eng qadimiy janrlaridan biri bo'lib, bolaning ilk ruhiy-estetik tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ingliz va o'zbek bolalar folklorini qiyosiy-tipologik asosda o'rganish ham kuzatiladi. Bu yondashuv o'zbek bolalar folklorini boshqa xalqlar bolalar folklori bilan solishtirish, umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

O'zbek folklori, xususan, bolalar folklorining yozib olinishi va tadqiq etilishi, nashrga tayyorlash va butun jahonga yetkazib berish harakatlari folklorshunoslarimiz tomonidan ancha oldindan boshlangan edi. Folklorshunos Sh. Galiyev bolalar folklorining o'rganilishini davrlashtirishga harakat qilib, quyidagicha ifodalagan:

1. XI asrdan XIX asrning 2-yarmigacha bo'lgan davr.
2. XIX asrning oxiri XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davr.

3. XX asrning 30-yillaridan keyingi davr. [XX asr ўzbek folklorshunosligi, 2017:310]
Umuman, bolalar folkloriga oid ilk namunalar, turli xil o‘yinlar nomi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”idan joy olgan.

Bolalar folklorining o‘rganilishida janriy tasnif masalasi muhim o‘rin tutadi. Chunki bolalar folklori juda rang-barang janrlardan iborat bo‘lib, ularning barchasi bir xil vazifani bajarmaydi.

Bolalar folklorini tadqiq qilishda ijro muhiti ham muhim ahamiyatga ega. Kattalar folklorida ijro ko‘pincha marosim, yig‘in yoki mehnat jarayoni bilan bog‘liq bo‘lsa, bolalar folklorida ijro ko‘proq o‘yin, taqlid, hazil, chaqiruv, sanash va musobaqa jarayonida yuzaga keladi.

Bolalar folklorini tarbiyaviy vazifa nuqtayi nazaridan tahlil qilish tadqiqotchiga matnning faqat tashqi shaklini emas, balki uning ijtimoiy vazifasi, ijro jarayoni, bolalar psixologiyasiga mosligi va xalq pedagogikasi bilan aloqasini ham ko‘rsatadi.

Shu sababli tarbiyaviy vazifa bolalar folklorshunosligida alohida ilmiy mezon sifatida qaraladi. Bunday yondashuv bolalar folklorini umumiy folklor tarkibidagi yordamchi qatlam emas, balki mustaqil poetik va tarbiyaviy tizim sifatida o‘rganishga imkon beradi.

Y.Sultonov, N.Rahmonov, Sh.Turdimov, M.Yoqubbekova, Sobir Ehson Turk va K.Nurjonov, M.Jo‘rayev, Sh.Shomusarovlar tomonidan qilingan ishlar ham o‘zbek bolalar folklorini yig‘ish va nashr qilish ishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

8. XX asr ўzbek folklorshunosligi. Антология. Тузувчилар: О. Тўлабоев ва бошқ. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 592 б.

9. Бойчечак: Болалар фольклори ва меҳнат тароналари. Тўпловчилар: О. Сафаров ва К. Очилов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984. – 336 б.

10. Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Тошкент: Фан, 1998. – 96 б.

11. Жаҳонгиров Ф. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 124 б.

12. Сафаров О. Фольклор – бебаҳо бойлик. – Тошкент: Мухаррир, 2010. – Б. 231-284.

13. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 250 б.